

## **Saralash tanlovning ikkinchi bosqichida nomzodlarning taqdimot himoyasini o‘tkazish tartibi**

### ***Nomzodlar bo‘yicha:***

saralash tanlovlarning ilmiy stajirovka dasturi taqdimot himoyasini o‘tkazish uchun barcha nomzodlar belgilangan muddatda Innovatsion rivojlanish agentligi binosiga yetib keladi (*manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani., Universitet ko‘chasi., 7-uy, “Beruniy” metro bekati, 11, 28, 31, 78, 88, 116 yo‘nalishli avtobuslarning “Beruniy” bekati*);

taqdimot himoyasini o‘tkazish uchun har bir nomzodga 4 - 5 daqiqa vaqt ajratiladi va undan keyin savol-javob qismi boshlanadi;

taqdimot himoyasi chet tilida taqdimot (prezentatsiya) ko‘rinishida o‘tkaziladi va nomzodlar tomonidan taqdimot materiallari “[internship.ilmiy.uz](http://internship.ilmiy.uz)” ilmiy stajirovkalarini tashkil etishning yagona [elektron tizimiga](#) yuklanadi;

tanlangan tadqiqot ishi qisqa, lo‘nda va asoslangan holda ochib berilishi yuzasidan puxta tayyorgarlik ko‘rgan holda ishtirok etishlari talab qilinadi;

taqdimot himoyasida ishtirok etmagan (kelmagan) nomzodlarning hujjatlari maxsus ekspert guruhining qaroriga asosan rad etilishi mumkin (*agar nomzod tomonidan belgilangan muddatda taqdimot himoyasida ishtirok etishni imkoniyati bo‘lmasa bu haqida taqdimot himoyasi belgilangan muddatdan kamida bir ish kuni oldin uni tavsiya etgan buyurtmachi tashkilotning asoslantirilgan xati maxsus ekspert guruhiga kiritish maqsadida Agentlikka taqdim etilishi lozim*);

### ***Maxsus ekspert guruhi a’zolari bo‘yicha:***

nomzodlarning ilmiy stajirovka dasturi taqdimot himoyasini o‘tkazish Agentlik binosida tashkil etiladi;

ekspertlar nomzodlarning taqdimot himoyasida shaxsan ishtirok etadilar (*maxsus ekspert guruhi a’zolari xizmat safarida (vaqtincha mehnatga layoqatsizlik) yoki boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yig‘ilishlarda ushbu lavozimiga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar ishtirok etishi mumkin*);

ekspertlar nomzodlarni ikkinchi bosqich taqdimot himoyasi natijalarini [elektron tizimida](#) baholaydi.

maxsus ekspert guruhi yig‘ilish bayonlari nomzodlarning o‘tkazilgan taqdimot himoyasi kunlari bo‘yicha alohida rasmiylashtiriladi va onlayn tarzda kelishilgandan so‘ng imzolanadi.

**Maxsus ekspert guruhi yakuniy xulosa tayyorlashda quyidagi mezonlarga amal qiladi:**

nomzodlar taqdimot himoyasida xorijiy tillarni o‘zining ish faoliyatini amalga oshirishda zarur bo‘lgan darajada bilishi va qo‘llay olishi – **30 ballgacha**;

stajirovka maqsad va vazifalarining dolzarbligi hamda ilmiy yoki iqtisodiy samaradorligi – **40 ballgacha**;

stajirovkaning oliy ta’lim va/yoki ilmiy tashkilotning yo‘nalishlari, ehtiyojlari va talablariga mosligi – **30 ballgacha**.

Taqdimot yakunida **elektron tizimda** nomzodlarning to‘plagan ballari bo‘yicha ekspert guruhi rahbari va a’zolari tomonidan baholash jadvali shakllantiriladi.

Taqdimot natijalariga asosan kamida **60 ball** to‘plagan nomzodlar maxsus ekspert guruhi qarori bilan g‘olib deb topiladi.